

YER YUZIDA HAYOT HAQIDA DEKLARATSIYA

Kirish

Yer-bu rivojlanadigan tirik mavjudotdir. Yer yuzasidagi har bir hayot shakli hayot mazmunining ajralmas bo'lagidir. Chunonchi, biz mustaqil tirik organizm sifatida shuni anglamog'imiz zarur-ki, bizning oliy maqsadimiz sayyoramiz kelajagi uchun javobgarlikdir.

Har birimiz sayyoramiz rivojlanishiga rol o'ynashimiz zarur, tinchlikka erishishi uchun har birimiz o'z javobgarligimizni va ma'suliyatimizni sezishimiz lozim. Haligacha o'z hayotidan to'la qoniqqan insonlar ko'p emas. Butun dunyo bo'ylab cheklangan resurslar borasidagi kelishmovchiliklarga yo'liqamiz. Bu o'z o'rnida sayyoramizda bitmas ekologik yaralarni qoldiradi.

Yangi ming yillikka qadam qo'yar ekanmiz, tinchlikning yuzaga kelishi, insoniyatning har bir mustaqil a'zosi ongida tinchlikga bo'lgan intilish orzusi paydo bo'lgandagina vojib bo'ladi.

Haligacha insoniyat boylik, shon-shuhrat, fan-texnologiyalar egalariga va bundan forig'larga bo'linadi. Beruvchilar va oluvchilar, yordam ko'rsatadiganlar va yordamni ko'radiganlar orasidagi tafovut ham mavjud.

Deklaratsiyamiz bilan biz tafovut va har qanday ayirmachilikni oldini olishning yangi kontsepsiyasini ishlab chiqdik, u o'z o'rnida dunyoda tinchlikga yetishish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy qoidalar

Yangi erada, odamzod hamjihatlik dunyosiga intiladi, ya'ni bu dunyoda har bir inson va har bir millat o'zining sifatlarini boshqa bir tirik jon bilan hamjihatlikda erkin ifoda etishi mumkin. Bu hayolotni amalga oshirish uchun, biz sizga ushbu asosiy qoidalarni keltiramiz.

1. Hayotning qadri

Biz shunday dunyo yaratamizki, unda har bir hayot shakli sevgi va hamjihatlik ila e'zozlanadi va qadrlanadi.

2. Tafovutga hurmat

Biz shunday hayot yarataylik-ki, unda har bir irq, etnik guruhlar, dinlar, madaniyatlar, urf-odatlar hurmat qilinadi. Dunyo shunday makon bo'lsinki, unda diskriminatsiya va konfrontatsiyaga o'rin yo'q bo'lsin, umumiy, jismoniy va moddiy ma'noda, albatta.

Bu makonda har bir tafovut yuqori qadrlanadi va bunga xursand bo'ladilar.

3. Shukronalik va borlik bilan hamjihatlik

Biz shunday hayot yaratamizki, unda har bir odam shuni angelaydiki, bu dunyoda yorug'likni ko'rishni bizga ona tabiat ato etgan va biz u bilan hamjihatlikda yashashimiz lozim.

4. Ma'naviy va moddiy dunyo orasida uyg'unlik

Biz shunday dunyo yarataylikki, unda ham moddiy, ham madaniy, uyg'unlikka erishaylik. Biz hayotimizdagi moddiy jihatlarga keragidan ortiq e'tiborni to'xtatib, ma'naviy hayotimizning yashnashiga madad bo'laylik. Biz shunday hayot ko'raylikki, unda nafaqat moddiy balkim ma'naviy boyliklar qadru-e'zozda bo'lsin.

Amaliyot

Quyidagilarni amalga oshirgan holda, biz bu qonun qoidalarini amaliy hayotimizda qo'llaymiz:

Individuumlar sifatida:

Biz hokimlik va mas'uliyat milliy davlatlar, etnik-guruhlar va dinlar qo'lida bo'lgan davrda "Inson Davriga", o'tishimiz darkor. Unga har bir inson buyuk maqsadiga yetishish uchun mas'uliyatini o'z bo'yniga oladi.

Har birimiz yuragimizdagi muhabbat, hamjihatlik va shukronalikni joylashtirish uchun bu maqsadga intilamiz, bu bilan sayyoramizga tinchlikni hadya etamiz.

Bizning maxsus sohalarimiz:

Biz xamkorlik tizimini bunyod etamiz. Unda fan-ta'lim, madaniyat va san'at, din va falsafa, iqtisodiyot va siyosat, qolaversa barcha sohalarining sara yo'nalishlarini tanlab ularga rivoj beramiz.

Yangi avlod sari:

20-asrda ota onalar, o'qituvchilar va jamiyat, bolalar tarbiyachisi hissoblanar edilar, bolalar esa hamisha o'quvchi darajasida turar edilar. 21-asrda esa, kattalar bolalarning ajoyib fazilatlarini o'rganadilar. Chunki bolalardagidek poklik, ma'sumlik, oqilonalik, ichki his fazilatleri kattalarni bir-birlariga mehribon bo'lishga o'rgatadi. Kelgusi avlod, yorqin kelajakda tinchlikni yaratishga muhim hissa qo'shadi.

Dunyoda tinchlik bo'lsin!